

RITHVIK SINGH QALAMIGA MANSUB “I DON’T LOVE YOU ANYMORE” (ISHQ SAFARI) ASARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELGAN MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI

Ochilova Shaxnoza Mamarajab qizi

Termiz davlat universiteti

[*bintumamarajab@gmail.com*](mailto:bintumamarajab@gmail.com)

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Rithvik Singhning “I Don’t Love You Anymore” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan morfologik transformatsiyalarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mazkur tahlil orqali tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy uslublar va transformatsiyalarni tushuntirish, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan til va madaniy tafovutlarni qanday engish mumkinligini ko‘rsatish maqsad qilingan. Maqolada tahlil qilingan misollar orqali tarjimaning semantik va uslubiy xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, morfologik transformatsiyalar, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima, Rithvik Singh, lingvistik tahlil.

**ANALYSIS OF MORPHOLOGICAL TRANSFORMATIONS
IN TRANSLATING “I DON’T LOVE YOU ANYMORE” BY
RITHVIK SINGH FROM ENGLISH TO UZBEK**

ABSTRACT: This article is dedicated to analyzing the morphological transformations encountered during the process of translating Rithvik Singh's work “I Don’t Love You Anymore” from English into Uzbek. The purpose of this analysis is to explain the main techniques and transformations used in the translation process and to explore how linguistic and cultural differences arising during translation can be addressed. The study examines the semantic and stylistic features of the translation through analyzed examples.

Key words: translation, morphological transformations, English-Uzbek translation, Rithvik Singh, linguistic analysis.

KIRISH

Rithvik Singh, Hindistonda tug‘ilib o‘sgan zamonaviy yozuvchi va shoir, o‘zining qisqa va ta’sirchan asarlari bilan tanilgan. Singhning asarlaridagi poetik mazmun oddiy, lekin chuqur hissiy jihatlar bilan keng ommaga manzur keladi. Tarjima jarayonida, ayniqsa, adabiy asarlar tarjimasida til tizimlarining morfologik va sintaktik o‘zgarishlari muhim o‘rin tutadi. Tarjima qiluvchi asarning nafaqat ma’nosini, balki

uning hissiy ruhiyatini ham boshqa madaniyatga moslashtirishi kerak. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida til strukturasi va madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun morfologik transformatsiyalar zarur. Ushbu maqola tarjima jarayonidagi bunday o‘zgarishlarning sabablari va ularning asar mazmuniga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Bu nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki tarjimonning ijodiy yondashuvini ham tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqola doirasida tarjima jarayonidagi morfologik transformatsiyalarni aniqlash va tahlil qilish uchun ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tarjima nazariyalari o‘rganildi. Tarjima jarayonida morfologik transformatsiyalarni o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Morfologik transformatsiyalar asosan til tizimidagi tuzilmalarning mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilida fe’llar va sifat doshlardan ot yasash oddiy, o‘zbek tilida esa bu jarayon morfologik o‘zgarishlarni talab qiladi. Tadqiqotda tarjima jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolarni tahlil qilish uchun taqqoslash va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Metodika asosida turli tarjima nazariyalari, jumladan, ekvivalentlik nazariyasi va funksional muvofiqlik yondashuvi ko‘rib chiqildi. Asarning har bir qismi o‘zbek o‘quvchisiga semantik va uslubiy jihatdan yaqinlashtirildi.

NATIJALAR

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan morfologik transformatsiyalar asarning mazmunini va hissiy ta’sirini saqlash uchun muhimdir. Masalan, 'love' so‘zining 'oshiq' sifatida tarjimasi o‘zbek tilida nafaqat mazmunan, balki uslubiy jihatdan ham mos keladi. Madaniy tafovutlar sababli ba’zi iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishning imkoni yo‘q. Tarjima jarayonida asarning asosiy g‘oyasini saqlab qolish uchun lingvistik o‘zgarishlar va madaniy moslashuvlar birgalikda qo‘llanilishi kerak. Bundan tashqari, tarjimonning ijodiy yondashuvi va lingvistik bilimlari jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu transformatsiyalar o‘zbek tilidagi kitobxonlar uchun matnni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi.

MUHOKAMA

Tahlil davomida quyidagi morfologik transformatsiyalar aniqlangan va tahlil qilingan:

1. Fe’l otga aylangan:

- Misol: *“I love you”* → *“Senga oshiqman”* [1.B5].

2. Olmosh otga aylangan:

- Misol: *“For someone whose love comes in waves”* → *“Dengiz to‘lqinlangandagina sevadigan inson uchun”* [1.B14].

3. Ot fe’lga aylangan:

- Misol: *“For someone whose love comes in waves”* → *“Dengiz to‘lqinlangandagina sevadigan inson uchun”* [1.B14].

4. Sifatdosh sifatga aylangan:

- Misol: *“There’s a dying patient who has fallen in love with life”* → *“Hayotga muhabbatsiz xasta bemor”* [1.B8].

XULOSA

Rithvik Singhning 'I Don't Love You Anymore' asarining tarjima jarayoni morfologik transformatsiyalarning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Ushbu o'zgarishlar tarjimaning sifatini oshirishga yordam beradi va asarning mazmunini boshqa madaniyatga moslashtiriladi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasida ushbu tahlillar yanada kengroq ilmiy yondashuvlarni talab qiladi. Tarjima qilinadigan adabiy asarlarni o'rganish orqali morfologik transformatsiyalarni chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tarjimada olingan tajribalar yosh tarjimonlar va lingvistlar uchun qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rithvik Singh, I don't love you anymore, Penguin Random House India Pvt. Limited, 2024.
2. Oxford University, Oxford Dictionary of Current English. – USA: Oxford University press, 2006.
3. Kamoljonovich S.J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PRESPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (2)1. 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.
5. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144.
6. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43
7. Kizi, A.N.O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
8. Sirojiddinova, O. S., & Odil o'g'li, J. M. (2023). PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE TRANSLATION OF DRAMATIC WORKS. *TADQIQOTLAR. UZ*, 28(2), 66-69.
9. Odil o'g'li, J. M., & Mamarajabovna, O. S. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 771-773.
10. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 73-76.
11. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and Researches*, (8(30)). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>